

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

TARJIMADA BADIY TASVIR VOSITALARINING SAQLANISHI

Radjapova Intizor Egamberganovna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, PhD.

e-mail: radjapovaintizor70389@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0008-0579-4088>

Annotatsiya.

Maqolada badiiy tarjimaning markaziy muammolaridan biri – aslyatdagi badiiy tasvir vositalari (troplar va stilistik figuralar)ning tarjima til muhitida saqlanishi masalasi tahlil etiladi. Ekvivalentlik va adekvatlik kategoriyalari, milliy kolorit hamda realiyalarni tarjima qilish usullari, tarjima transformatsiyalari va kompensatsiya tamoyili ingliz va o'zbek tillari materiali asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: badiiy tarjima, badiiy tasvir vositalari, trop, metafora, ekvivalentlik, adekvatlik, milliy kolorit, transformatsiya, kompensatsiya.

СОХРАНЕНИЕ СРЕДСТВ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОСТИ В ПЕРЕВОДЕ

Раджапова Интизор Эгамбергановна

Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни, PhD.

Аннотация.

В статье анализируется одна из центральных проблем художественного перевода - сохранение средств художественной изобразительности оригинала (тропов и стилистических фигур) в среде переводящего языка. На материале английского и узбекского языков освещаются категории эквивалентности и адекватности, способы передачи национального колорита и реалий, переводческие трансформации и принцип компенсации.

Ключевые слова: художественный перевод, средства художественной изобразительности, троп, метафора, эквивалентность, адекватность, национальный колорит, трансформация, компенсация.

PRESERVATION OF FIGURATIVE DEVICES IN LITERARY TRANSLATION

Radjapova Intizor Egamberganovna

Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni, PhD.

Abstract.

The article analyses one of the central problems of literary translation – the preservation of the figurative devices (tropes and stylistic figures) of the source text in the target language environment. Based on English and Uzbek material, it examines equivalence and adequacy, the rendering of national colour and realia, translation transformations and the principle of compensation.

Keywords: literary translation, figurative devices, trope, metaphor, equivalence, adequacy, national colour, transformation, compensation.

Kirish. Badiiy tarjima – bir til doirasida shakllangan badiiy-estetik qadriyatlarni tarjima til va madaniyat muhitiga ko'chiruvchi murakkab ijodiy faoliyat bo'lib, unda lisoniy almashinuvdan tashqari madaniyatlararo muloqot ham amalga oshadi. Badiiy asarning o'zagini, uning ta'sir kuchini ta'minlovchi unsurlar – badiiy tasvir vositalaridir. Metafora, o'xshatish, epitet, jonlantirish, mubolag'a, kinoya kabi troplar hamda takror, antiteza, inversiya singari stilistik figuralar matnning shunchaki bezagi emas, balki muallif badiiy konsepsiyasining moddiy ifodasi, obrazli tafakkurning to'qimasidir. Shu bois badiiy tarjimaning bosh mezoni – axborotni emas, estetik ta'sirni teng darajada saqlab qolishdir.

Aynan shu nuqtada tarjimaning eng nozik nazariy va amaliy muammolaridan biri yuzaga keladi: turli tizimga mansub tillarda tasvir vositalari turlicha shakllangan bo'lib, ularning birini ikkinchisiga to'g'ridan-to'g'ri tarzda tarjima qilish ko'pincha mumkin emas. Aslyatdagi obrazning lisoniy "qobig'i" o'zgarganda, uning badiiyligi qanday saqlanadi? Mazkur savol tarjimashunoslikning markaziy muammolaridan biri sifatida hanuzgacha o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q va globallashuv sharoitida yanada ortmoqda. Bir tomondan, jahon adabiyotining sara namunalari o'zbek tiliga tarjima qilinmoqda; ikkinchi tomondan, milliy adabiyotimizning durdona asarlari, jumladan, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani ingliz tiliga tarjima qilinib, jahon kitobxoniga taqdim etilmoqda. Bunday ikki yoqlama jarayon badiiy tasvir vositalarini adekvat yetkazish muammosini nazariy jihatdan chuqur o'rganishni taqozo etadi. Mazkur maqolada badiiy tasvir vositalarining tarjimada saqlanish qonuniyatlari ingliz va o'zbek tillari materiali, xususan, Sharlotta Brontening "Jeyn Eyr" romani misolida qiyosiy-tipologik hamda tarjimashunoslik tahlili usullari yordamida o'rganiladi,

troplar va realiyalarni qayta yaratishning asosiy usullari tizimlashtiriladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Badiiy tasvir vositalari – tilning obrazli, hissiy imkoniyatlaridan estetik maqsadda foydalanish natijasida yuzaga keladigan birliklardir. An'anaviy poetikada ular ikki guruhga ajratiladi: ma'no ko'chishiga asoslangan troplar (metafora, metonimiya, sinekdoxa, o'xshatish, epitet, jonlantirish, mubolag'a, kinoya, ramz) hamda sintaktik qurilma va taklorga asoslangan stilistik figuralar (antiteza, gradatsiya, inversiya, ritorik so'roq va undov). Ularning umumiy vazifasi – voqelikni faqat mantiqiy emas, balki hissiy-obrazli idrok etishni ta'minlash, kitobxonda muayyan estetik kechinma uyg'otishdir.

Tarjima nazariyasida bu birliklar alohida maqomga ega, zero ular ma'no (denotativ mazmun) bilan birga konnotativ, uslubiy va madaniy axborotni ham tashiydi. O'zbek tarjimashunosligi asoschisi G'aybullar Salomov ta'kidlaganidek, badiiy tarjima asl matnning ham mazmunini, ham uslubiy-estetik qiymatini bir butun holda tiklashni talab qiladi [1; B. 24.]. Bu esa tarjimonni shunchaki «so'z o'giruvchi» emas, asl muallifning ijodiy hammuallifiga aylantiradi.

Mashhur o'zbek tarjimashunosi Qudrat Musayev tarjimaning ana shu ijodiy mohiyatini quyidagicha ta'riflaydi: "Insoniyat faoliyatining murakkab shakli bo'lmish tarjima – bir tilda yaratilgan nutqiy ifodani (matnni), uning shakl va mazmun birligini saqlagan holda, o'zga til vositalari asosida qayta yaratishdan iborat ijodiy jarayondir" [2; B. 8.]. Keltirilgan ta'rifdan ko'rinadiki, badiiy tasvir vositalarini tarjimada saqlash, eng avvalo, "shakl va mazmun birligi"ni qayta tiklash demakdir. Tarjimon faqat obrazning ma'nosini emas, balki uning shaklini, ohangini, hissiy quvvatini ham e'tiborga olishi shart. Aks holda matnning informativ qatlami saqlanib, badiiy-estetik qatlami yo'qoladi.

Badiiy tasvir vositalarini saqlash muammosi tarjimashunoslikdagi ekvivalentlik va adekvatlik kategoriyalari bilan chambarchas bog'liq. Yu. Naydaning klassik nazariyasiga ko'ra, ikki turdagi ekvivalentlik farqlanadi: formal ekvivalentlik (asl matn shakli va **tuzilishiga** yuqori darajada yaqinlik) hamda dinamik (funktional) ekvivalentlik (tarjima kitobxonida asliyat kitobxonidagiga teng ta'sir uyg'otish) [3; P. 22–24.]. Badiiy tasvir vositalari tarjimasida ko'pincha dinamik ekvivalentlik ustun keladi, zero bu yerda hal qiluvchi mezon – shaklning tashqi aynanligi emas, balki estetik ta'sirning tengligidir.

Biroq tillarning tuzilishidagi va madaniyatlaridagi tafovutlar ba'zan obrazni to'liq saqlashga imkon bermaydi. J. Ketford bu hodisani ikki turga ajratadi: lingvistik tarjima qilinmaslik (manba tildagi shaklning maqsad tilda ekvivalenti yo'qligi) va madaniy tarjima qilinmaslik (manba madaniyatga xos voqelik maqsad madaniyatda mavjud emasligi) [4; P. 93–94.]. Aynan madaniy tarjima qilinmaslik badiiy tasvir vositalari, xususan, milliy obraz va realiyalar o'girilishida eng katta qiyinchilik tug'diradi.

Bu muammoning eng keskin ifodasini R. Yakobson she'riy matn misolida bergan: "She'riyat, o'z ta'rifiga ko'ra, tarjima qilib bo'lmaydi. Faqat ijodiy ko'chirish (transpozitsiya) mumkin" [5; P. 238.]. Yakobsonning fikri "tarjima qilinmaslik"ni mutlaq inkor sifatida emas, balki badiiy matn tarjimasining tabiatiga ishora sifatida tushunilmog'i lozim: bu yerda ko'chirish mexanik emas, ijodiy bo'lib, tarjimon obrazni o'z tilida qaytadan "yaratadi". Shu ma'noda o'zbek tarjimashunosligi badiiy tarjimoni azaldan qayta yaratish san'ati sifatida talqin etib kelgan: asl matnning o'zi emas, uning badiiy-funktional ekvivalenti yuzaga keltiriladi.

Maqolada qiyosiy-tipologik tahlil, tarjimashunoslik (asliyat va tarjima matnlarini qiyoslash) hamda tavsifiy metodlardan foydalanildi; nazariy asos sifatida G'. Salomov, Q. Musayev, R. Fayzullayeva, Yu. Nayda, J. Ketford, R. Yakobson, P. Nyumark, S. Bassnet va V. Komissarov ishlari xizmat qildi. Amaliy tahlil materiali sifatida Sharlotta Brontening "Jeyn Eyr" romani [11] va uning Sh. Ahrorova tomonidan amalga oshirilgan o'zbekcha tarjimasi [12] tanlandi, zero mazkur asar troplar, stilistik figuralar hamda milliy realiyalarga nihoyatda boy bo'lib, uning o'zbek tiliga tarjimasi badiiy tasvir vositalarini saqlash usullarini kuzatish uchun qulay maydon yaratadi.

Muhokama.

Metafora – badiiy tafakkurning markaziy vositasi va, ayni paytda, tarjimaning eng murakkab birligi. P. Nyumark metaforani tarjima qilishning bir necha amaliy usulini ajratadi: asliyat obrazini aynan tiklash; uni tarjima tilning odatiy obraziga almashtirish; metaforani o'xshatishga aylantirish; obrazni izoh (ma'no) bilan berish; metafora bilan izohni birga qo'llash; oxir-oqibat, metaforadan butunlay voz kechish [6; P. 104–113.]. Tanlov asliyat obrazining umuminsoniy yoki milliy-xos ekanligiga bog'liq. Masalan, ingliz tilidagi *The evening of life* metaforasi o'zbekchaga "umr shomi" tarzida aynan tiklanadi, chunki "hayot – kun" konseptual metaforasi har ikki madaniyatda mushtarak. Biroq milliy zaminga ega obrazlar ko'pincha almashtirish yoki izohlashni taqozo etadi.

"Jeyn Eyr" romani badiiy tasvir vositalariga nihoyatda boy asar bo'lib, uning tarjimasi yuqoridagi nazariy qoidalarni yorqin namoyish etadi. Romanning eng mashhur metaforalaridan biri: Jeynning erkinlik tuyg'usini ifodalovchi qush obrazi: "*I am no bird; and no net ensnares me: I am a free human being with an independent will*" [11; Ch. XXIII.]. Bu yerda "qush – tutqunlik", "to'r – ijtimoiy cheklovlar" konseptual metaforasi umuminsoniy **xususiyatga** ega bo'lgani bois o'zbek tilida aynan tiklanadi: "Men qush emasman; meni hech qanday to'r ilintira olmaydi: men mustaqil irodaga ega erkin insonman". Obrazning to'liq saqlanishi asliyatdagi estetik ta'sirni deyarli yo'qotishsiz yetkazadi, zero qush va to'r obrazlari o'zbek she'riyati va folklorida ham erk hamda tutqunlik ramzi sifatida qadimdan mavjud.

Ammo asardagi barcha metaforalar ham bunday oson ko'chirilavermaydi. Rochesterning Jeynga aytgan mashhur kengaytirilgan metaforasi bunga misol bo'la oladi: "*...as if I had a string somewhere under my left ribs, tightly and inextricably knotted to a similar string situated in the corresponding quarter of your little frame*" [11; Ch. XXIII.]. "Chap qovurg'a ostidagi ip" obrazi so'zma-so'z tarjimada o'zbek kitobxonini uchun g'ayrioddiy tuyulishi mumkin; shu bois tarjimon obrazning o'zagini saqlagan holda sintaktik qurilmani tarjima til me'yorlariga moslashtiradi: "*...go'yo chap qovurg'am ostida bir ip bo'lib, u sizning vujudingizdagi xuddi shunday ipga mahkam va yechib bo'lmas tugun bilan*

bog'langandek". Bu o'rinda o'zbek tilidagi "ko'ngil rishtasi" tushunchasiga tayanish kompensatsiya vazifasini ham bajaradi: "Rishta" obrazi aslyatdagi tasvirga milliy tabiiylik baxsh etadi va estetik ta'sir tengligini ta'minlaydi.

O'xshatish (simile) odatda metaforaga nisbatan osonroq tarjima qilinadi, chunki uning grammatik ko'rsatkichi (ingliz tilidagi *like/as*, o'zbekcha -dek, kabi, singari, go'yo) saqlanadi. Shunga qaramay, o'xshatish asosidagi obraz milliy bo'lsa, qiyinchilik yuzaga keladi: *as busy as a bee* iborasi o'zbekchaga so'zma-so'z emas, balki "chumolidek mehnatkash" yoki "asalaridek tirishqoq" tarzida funksional moslashtiriladi. Epitet tarjimasida esa sintagmatik (so'z birikuv) cheklovlari muhim ahamiyat kasb etadi: ingliz tilidagi *a deep silence* "chuqur sukunat" emas, ko'proq "tim sukunat" yoki "o'lik jimlik" shaklida tabiiy jaranglaydi. Demak, epitet tarjimasi ko'pincha tarjima tilning me'yorlariga moslashtirishni talab qiladi.

"Jeyn Eyr"da o'xshatish va epitetlar obraz yaratishning muhim vositasidir. Sent-Jon Riversning sovuq, hissiz muomalasini Jeyn "kishanlarimga bosilgan muhrdek" ("*his kiss was like a seal affixed to my fetters*") o'xshatishi orqali ta'riflaydi [11; Ch. XXXIV.]. Mazkur o'xshatish o'zbek tilida grammatik ko'rsatkich (-dek) yordamida to'liq saqlanadi, chunki "kishan" va "muhr" obrazlari har ikki madaniyatda ayni konnotatsiyani – erksizlik va majburiyatni – tashiydi. Epitetlarga kelsak, romandagi ramziy "*the red-room*" ("qizil xona") birikmasi kalka usulida beriladi va rang orqali ifodalangan qo'rquv, jazo hamda o'lim konnotatsiyalarini o'zbek matnida ham to'la saqlab qoladi [11; Ch. II.]: qizil rangning xavf va dahshat bilan bog'liq hissiyoti umumiy jihatlariga ega.

Asardagi tabiat tasvirlari ko'pincha jonlantirish va ramz vazifasini bajaradi. Jeyn va Rochester unashtirilgan tunda chaqmoq urib ikkiga bo'lingan kashtan daraxti qahramonlarning kelgusi judoligining ramzidir [11; Ch. XXIII.]. Bunday ramzlar muayyan til birligiga emas, balki matn kontekstiga tayangani bois tarjimada to'g'ridan-to'g'ri tiklanadi va o'z estetik vazifasini to'la saqlaydi. Bu holat badiiy tasvir vositalarining saqlanish darajasi ularning lisoniy yoki kontekstual tabiatiga bog'liq ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi: kontekstual-ramziy obrazlar tarjimada eng barqaror, lisoniy o'yinga asoslangan vositalar esa eng "mo'rt" hisoblanadi.

Frazeologik birliklar, idioma va maqollar tasviriy-obrazli tarjimaning alohida turkumini tashkil etadi. Tarjimonlar ularni tarjima qilishning to'rt asosiy yo'lini ajratadilar: to'liq ekvivalent (obraz va ma'no mos), qisman ekvivalent – analog (ma'no mos, obraz farqli), kalka (so'zma-so'z nusxalash) hamda tasviriy (izohli) tarjima [7; B. 60.]. Masalan, *to kick the bucket* idiomasi kalka qilib bo'lmaydi; uning funksional analogi – "olamdan o'tmoq, jon bermoq". *It is raining cats and dogs* iborasi esa o'zbekcha "chelaklab yog'moq" analogi orqali beriladi. Maqol tarjimasida aslyat maqolining o'zbek tilidagi muqobilini topish (mas., *When in Rome, do as the Romans do* – "Qaysi elga borsang, shu elning to'nini kiy") obrazli-uslubiy adekvatlikni saqlashning eng samarali yo'lidir.

Badiiy tasvir vositalarining katta qismi milliy-madaniy bo'yoqdorlik (kolorit) bilan yo'g'rilgan bo'ladi. R. Fayzullayeva ta'kidlaganidek, milliy kolorit asarning estetik o'ziga xosligini belgilovchi muhim omil bo'lib, uni saqlash badiiy tarjimaning asosiy vazifalaridan biridir [8; B. 24.]. Milliylik ko'pincha realiyalar – muayyan xalq turmushiga xos predmet va tushunchalar (mas., o'zbekona choyxona, supa, do'ppi, o'tov, dasturxon) hamda obrazli iboralar orqali namoyon bo'ladi.

Realiyalar tarjimasida tarjimashunoslik ikki tarjima usulini farqlaydi: matnni kitobxonga yaqinlashtiruvchi moslashtirish (domestikatsiya) va kitobxonni asl madaniyatga olib boruvchi begonalashtirish (forenizatsiya). Zamonaviy tarjimashunoslikdagi "madaniy burilish" (cultural turn) tarjimoni sof lisoniy emas, madaniy hodisa sifatida talqin etib, bu tanlovning estetik va mafkuraviy oqibatlariga e'tibor qaratadi [9; P. 30–34.]. Amalda tarjimonlar realialarni transkripsiya yoki transliteratsiya (do'ppi – *doppi*), analog topish, generalizatsiya (umumlashtirish) yoxud izohli tarjima orqali beradilar. To'g'ri tanlangan usul milliy bo'yoqdorlikni saqlash bilan birga matnning maqsad tilda tabiiy o'qilishini ham ta'minlaydi.

"Jeyn Eyr" tarjimasida ingliz turmushiga xos realiyalar alohida qiyinchilik tug'diradi. Guvernantka instituti, "hall" (Tornfild-holl), "moor", "parlour", "mister", "miss" kabi birliklar asosan transliteratsiya, ya'ni forenizatsiya yo'li bilan beriladi va asarning ingliz milliy koloritini saqlaydi; ayrim hollarda esa generalizatsiya yoki izohli tarjima qo'llanadi: masalan, "moor" o'zbekchada "adirlik" yoxud "dasht" tarzida umumlashtiriladi. "Mister" va "miss" murojaat shakllarining aynan saqlanishi kitobxonni asl madaniy muhitga olib kiradi hamda Viktoriya davri Angliyasining ijtimoiy ierarxiyasini his qilishga yordam beradi. Ayni paytda o'lchov birliklari (mile, foot) va pul birliklari (pound, shilling) ko'pincha transliteratsiya qilinib, zarur o'rinlarda kontekst orqali oydinlashtiriladi. Demak, bitta asar tarjimasining o'zida ham domestikatsiya va forenizatsiya usullari birgalikda, o'zaro muvozanatda qo'llanishi kuzatiladi.

Badiiy tasvir vositalarini saqlashning amaliy mexanizmi tarjima transformatsiyalari (almashtirishlari) bilan bog'liq. V. Komissarov ularni leksik, grammatik va kompleks (leksik-grammatik) turlarga ajratadi; bularga konkretlashtirish, umumlashtirish, modulyatsiya (ma'noviy rivojlantirish), antonimik tarjima, so'z tartibini o'zgartirish, qo'shish va tushirib qoldirish kabilar kiradi [10; S. 172–187.]. Bu usullar tilshunoslik nuqtai nazaridan go'yo "yo'qotish"dek ko'rinsa-da, aslida obrazni maqsad tilning me'yorlariga moslab tiklash vositasidir.

Transformatsiyalar tizimida alohida o'rin tutadigan tamoyil – kompensatsiya. Aslyat matndagi muayyan tasvir vositasi (mas., so'z o'yni, alliteratsiya yoki sheva bo'yog'i) tarjimada o'z o'rnida saqlanmasa, tarjimon uni matnning boshqa nuqtasida – o'zga lisoniy vosita yordamida tiklaydi. Shu yo'l bilan ayrim o'rinlardagi "yo'qotish" butun matn miqyosida "qoplanadi" va asarning umumiy estetik yaxlitligi saqlanadi. Demak, badiiy tasvir vositalarini saqlash mezonini alohida birlik darajasida emas, balki butun matn darajasida baholanmog'i lozim: muhimi – har bir tropni aynan ko'chirish emas, asarning badiiy ta'sir kuchini teng saqlab qolishdir.

Natijalar.

Nazariy qoidalar va "Jeyn Eyr" romani materiali asosidagi tahlil natijalari quyidagi xulosalarga olib keladi. Birinchidan, badiiy tasvir vositalarini tarjimada saqlash mexanik, so'zma-so'z ko'chirish emas, balki asl matnning estetik

ta'sirini qayta tiklovchi ijodiy jarayondir; bunda formal aynanlikdan ko'ra dinamik (funktional) ekvivalentlik ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ikkinchidan, troplarning saqlanish darajasi ularning **xususiyatiga** bog'liq: umuminsoniy konseptual obrazlar ko'pincha aynan tiklanadi, milliy-madaniy zaminga ega obrazlar esa moslashtirish, analog yoki izohli tarjimani taqozo etadi.

Uchinchidan, milliy kolorit va realiyalarni tarjima qilishda mahalliyashtirish hamda begonalashtirish o'rtasidagi muvozanat asarning madaniy o'ziga xosligini saqlash bilan o'qilishi tabiiyligini uyg'unlashtirishi lozim. To'rtinchidan, transformatsiya va, xususan, kompensatsiya tamoyili badiiy tasvir vositalarini saqlashning eng samarali amaliy mexanizmi bo'lib, baholash birligi alohida trop emas, balki butun badiiy matndir.

Xulosa.

Badiiy tasvir vositalarining tarjimada saqlanishi masalasi aslyat va tarjima o'rtasidagi estetik muvozanatni ta'minlashning asosiy sharti ekanligi ma'lum bo'ldi. Sharlotta Brontening "Jeyn Eyr" romani misolidagi tahlil umuminsoniy obrazlar (qush va to'r metaforasi, qizil rang ramzi) tarjimada aynan tiklanishini, milliy-madaniy zaminga ega birliklar (ingliz realiyalari, o'ziga xos kengaytirilgan metaforalar) esa moslashtirish, izohlash yoki kompensatsiyani taqozo etishini ko'rsatdi. Tarjimon oldida turgan vazifa – har bir trop yoki figurani aynan ko'chirish emas, balki asarning umumiy badiiy ta'sir kuchini, obrazlar tizimini va milliy koloritini tarjima tili me'yorlari doirasida qayta yaratishdir. Buning uchun dinamik ekvivalentlik tamoyili, realiyalarni tarjima qilishda mahalliyashtirish va begonalashtirish muvozanati hamda transformatsiya va kompensatsiya usullaridan o'rinni foydalanish talab etiladi. Mazkur xulosalar maqolaning nazariy asosini tashkil etadi va kelgusi izlanishlarda ingliz hamda o'zbek tillaridagi aniq ko'rsatilgan badiiy asarlar tarjimasini qiyosiy tahlil qilish orqali yanada chuqurlashtirilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1983. – 232 b.
2. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2005. – 352 b.
3. Nida E. A., Taber C. R. The Theory and Practice of Translation. – Leiden: E. J. Brill, 1969. – 218 p.
4. Catford J. C. A Linguistic Theory of Translation. – London: Oxford University Press, 1965. – 103 p.
5. Jakobson R. On Linguistic Aspects of Translation // Brower R. A. (Ed.). On Translation. – Cambridge (Mass.): Harvard University Press, 1959. – P. 232–239.
6. Newmark P. A Textbook of Translation. – London: Prentice Hall, 1988. – 292 p.
7. Jo'rayev K. Tarjima san'ati. – Toshkent: Fan, 1982. – 60 b.
8. Файзуллаева Р. Национальный колорит и художественный перевод. – Ташкент: Фан, 1979. – 112 с.
9. Bassnett S. Translation Studies. 3rd ed. – London; New York: Routledge, 2002. – 176 p.
10. Комиссаров В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – Москва: Высшая школа, 1990. – 253 с.
11. Brontë Ch. Jane Eyre. – London: Smith, Elder & Co., 1847.
12. Bronte Sh. Jeyn Eyr: roman / ingliz tilidan Sh. Ahrorova tarjimasi. – Toshkent: Ziyo nashr, 2022. – 160 b.